



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19708587>

## Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarning fikrlash va tushunib o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi

**Olimova Nilufar Qosimjon qizi –**

Farg'ona davlat universiteti,  
Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: [nilufarolimova90@mail.com](mailto:nilufarolimova90@mail.com)  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9891-9988>

**Xamidova Xayitxon Xabibullo qizi –**

Farg'ona davlat universiteti magistranti  
E-mail: [xamidovaxayitxon301@gmail.com](mailto:xamidovaxayitxon301@gmail.com)  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-4894-6923>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash va tushunib o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalari – ertak va maqollardan foydalanishning zamonaviy metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, integratsiyalashgan ta'lim va raqamli pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning tafakkuri, nutqi va matnni anglab o'qish malakalarini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodidan foydalangan holda o'quvchilarning bilim darajasi va faolligi sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, o'quvchilarni erkin fikrlashga rag'batlantirish va matnni chuqur anglash qobiliyatlarini shakllantirishda metodik vositalar samaradorligi tasdiqlandi.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, tushunib o'qish, fikrlash kompetensiyasi, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, nutq rivoji.

## **Методика развития компетенций мышления и осмысленного чтения у учащихся на основе образцов устного народного творчества**

***Аннотация.** В данной статье рассматривается современная методология использования образцов народного искусства – сказок и пословиц – для развития мыслительных и речевых компетенций учащихся начальной школы. В исследовании анализируются механизмы развития мыслительных, речевых и речевых компетенций учащихся на основе компетентностного подхода, интерактивных методов, интегрированного обучения и цифровых педагогических технологий. Результаты эксперимента показали, что использование народного искусства значительно повысило уровень знаний и активности учащихся. При этом подтверждена эффективность методических средств в стимулировании свободного мышления учащихся и формировании их способностей к глубокому пониманию текста.*

***Ключевые слова:** народное искусство, сказки, пословицы, понимание прочитанного, мыслительные компетенции, начальное образование, интерактивные методы, компетентностный подход, педагогические технологии, развитие речи.*

## **Methodology for developing students' thinking and reading comprehension competencies through folk oral literature**

***Annotation.** This article discusses the modern methodology for using folk art samples - fairy tales and proverbs - to develop thinking and reading comprehension competencies of primary school students. The study analyzes the mechanisms for developing students' thinking, speech and reading comprehension competencies based on a competency-based approach, interactive methods, integrated learning and digital pedagogical technologies. The results of the experiment showed that using folk art significantly increased the level of knowledge and activity of students. At the same time, the effectiveness of methodological tools in encouraging students to think freely and forming their abilities to understand the text in depth was confirmed.*

***Keywords:** folk art, fairy tales, proverbs, reading comprehension, thinking competencies, primary education, interactive methods, competency-based approach, pedagogical technologies, speech development.*

### **KIRISH**

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tushunib o'qish va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida o'quvchilarning faqat bilim olishlari emas, balki o'z fikrini erkin bayon etish, matnni chuqur anglash va tahlil qilish ko'nikmalarini egallashlari talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Prezident o'z nutqlarida yoshlarning mustaqil fikrlashi, zamonaviy bilimlarni egallashi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi muhim ekanligini qayd etadi. Jumladan, u shunday ta'kidlaydi: "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va

kasb-hunarlarni puxta egallagan, Vatanimiz taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz zarur"[1]. Mazkur fikrlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish muhim vazifa ekanligini ko'rsatadi. Bu vazifani amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda mavjud ilmiy tadqiqotlar xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyatini yoritgan bo'lsa-da, uni aynan tushunib o'qish va fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida tizimli qo'llash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish, xalq og'zaki ijodi namunalari didaktik jihatdan qayta ishlash hamda ularni boshlang'ich ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida integratsiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish, ya'ni o'quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikmalarni – matnni tahlil qilish, xulosa chiqarish, fikrni asoslash, taqqoslash va umumlashtirish kabi intellektual faoliyatlarni shakllantirish zarur. Shu bilan birga, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va integratsiyalashgan darslardan foydalanish orqali xalq og'zaki ijodi namunalari ta'limiy samaradorligini yanada oshirish mumkin.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Boshlang'ich ta'limda xalq og'zaki ijodidan foydalanish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari mazkur yo'nalishning nazariy asosini tashkil etadi:

J.Brunerning fikricha, ertaklar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat o'qish savodxonligini, balki tafakkur jarayonlarini ham rivojlantiruvchi muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ertak mazmunini qayta hikoya qilish, voqealar ketma-ketligini tiklash va qahramonlar harakatini izohlash orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydilar[2]. L.Vygotskiy esa tafakkur va nutq rivojining uzviy bog'liqligini asoslab, ijtimoiy muhitning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bu jihat ertak va maqollarni birgalikda muhokama qilish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. O'quvchilar matn mazmunini muhokama qilish, savol-javoblarda ishtirok etish, o'z fikrini ifodalash orqali nutqiy faoliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, maqollar ustida ishlash jarayonida qisqa, ammo mazmunli fikrni tushunish va uni izohlash orqali abstrakt tafakkur shakllanadi[3]. J.Dewey tajribaga ko'ra, ertaklarni sahnalashtirish, rolli o'yinlar tashkil etish, maqollarga mos hayotiy vaziyatlarni yaratish orqali o'quvchilar bilimni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Bunday yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi[4]. Umuman olganda, ushbu olimlarning nazariy qarashlari shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish nafaqat tarbiyaviy, balki kognitiv va kommunikativ rivojlanish uchun ham muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

O'zbek olimlari ham xalq og'zaki ijodining ta'limdagi ahamiyatini tizimli o'rganib, uning boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilish metodikasini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan. Masalan, M.Quronov milliy tarbiya nazariyasi doirasida o'quvchilarda vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar va xalq merosini anglashni shakllantirishda ertak va maqollarning pedagogik rolini tahlil qiladi[5]. O.Musurmonova ma'naviy tarbiya asoslarini o'rganishda xalq og'zaki ijodini bolalarning hissiy va axloqiy rivojlanishida samarali vosita sifatida ko'rsatadi[6]. S.Nishonova esa boshlang'ich ta'lim metodikasi doirasida o'quvchilarning tushunib o'qish va fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda maqollar va ertaklardan foydalanishning amaliy metodlarini bayon etadi[7]. O'rganilgan xalqaro va mahalliy olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalariidan – ertak va maqollardan foydalanish boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat

tarbiyaviy, balki kognitiv va kommunikativ rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Bu fikr bir necha jihatlar bilan ilmiy asoslanadi. Ertaklar va maqollar bolalarning tafakkur va nutq rivojlanishi uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ertaklarni o'quvchilar bilan birga muhokama qilish, voqealarni ketma-ketlikda qayta hikoya qilish va qahramonlar xarakterini tahlil qilish orqali mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va voqealarni umumlashtirish ko'nikmalari rivojlanadi di.

#### ***“Erkin yechim maydoni” metodi***

Mazkur metod xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy, ijodiy tafakkuri hamda tushunib o'qish kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvda ertaklar, maqollar, topishmoqlar va boshqa folklor janrlari o'quv faoliyatining markaziga qo'yilib, o'quvchi faol fikrlovchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Metodning mohiyati shundan iboratki, o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalari asoslangan muammoli vaziyatlar taqdim etiladi. Ushbu vaziyatlar aniq bitta to'g'ri javobga ega bo'lmay, turli fikr va yondashuvlarga ochiq bo'ladi. Masalan, ertak qahramonining xatti-harakatiga baho berish, maqol mazmunini turli hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash yoki voqealar rivojini boshqacha yakunlash kabi topshiriqlar orqali o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga yo'naltiriladi. Dars jarayonida o'quvchilar matnni nafaqat o'qiydi, balki uni tahlil qiladi, savollar qo'yadi, muammoni anglaydi va o'z yechimlarini taklif etadi. Bu jarayonda o'quvchi o'z fikrini asoslashga, dalillar keltirishga va boshqalarning fikriga tanqidiy yondashishga o'rganadi. Metod o'quvchilarning tushunib o'qish ko'nikmasini chuqurlashtirish bilan birga, ularning mantiqiy va ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi. “Erkin yechim maydoni” metodida ijodiy tafakkur o'quvchilarning erkin tasavvuri, yangi g'oyalar ilgari surishi va noodatiy yondashuvlari orqali shakllanadi. Shu bilan birga, tanqidiy tafakkur matn mazmunini tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash orqali rivojlanadi. Muhimi, o'quvchi xato qilishdan qo'rqmaydi, chunki har qanday fikr muhokama qilinadi va yangi yechim izlash uchun imkoniyat sifatida qabul qilinadi.

Xalq og'zaki ijodi vositalari asosida qo'llangan mazkur metod o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi hamda boshlang'ich ta'lim bosqichida mustaqil fikrlovchi, izlanishga moyil va o'z fikrini asoslab bera oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Metodika asosida tashkil etilgan darslar natijasida o'quvchilarning tushunib o'qish darajasi oshadi, matn ustida mustaqil ishlash va xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Dars jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tashkil etilgan muammoli va interfaol topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, ertak va maqollar bilan ishlash jarayonida hatto passiv o'quvchilar ham faol ishtirok eta boshladi. O'quvchilarda savol berish, matn mazmunini chuqur anglash, voqealarga munosabat bildirish va fikrini erkin ifodalash ko'nikmalari shakllandi. Ularning ichki motivatsiyasi kuchayib, o'qishga ongli yondashuv paydo bo'ldi. Tushunib o'qish jarayonida asosiy g'oyani aniqlash, muhim fikrlarni ajratish va xulosa chiqarish kabi kompetensiyalar rivojlandi. Shuningdek, o'quvchilarda tanqidiy tafakkurning dastlabki elementlari shakllanib, ular matnni tahlil qilish, qahramonlarga baho berish va voqealarga nisbatan mustaqil fikr bildirishga o'rgandilar. Ijodiy tafakkur esa ertaklarni davom ettirish, yangi yakunlar yaratish va maqollarga mos hayotiy misollar keltirish orqali namoyon bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi oshdi, jamoada ishlash, o'z fikrini asoslab berish va boshqalarning fikrini tinglash ko'nikmalari rivojlandi. Xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning tafakkur faoliyatini ham sezilarli darajada rivojlantirdi. Umuman

olganda, xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarning fikrlash va tushunib o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodika yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv dars mashg'ulotlarining qiziqarli va mazmunli tashkil etilishini ta'minlab, o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va fikrlash doirasining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash va tushunib o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodik yondashuvlar o'quvchilarning matnni chuqur anglash, asosiy g'oyani ajratish hamda voqealar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni tushunish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Xalq og'zaki ijodi namunalarning o'ziga xosligi – ularning obrazlilik, hayotiylik va tarbiyaviy yo'naltirilganligida namoyon bo'lib, bu esa o'quvchilarning dars jarayoniga faol jalb etilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, ertaklar va maqollar asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarning nafaqat tushunib o'qish, balki tanqidiy va ijodiy fikrlashini ham rivojlantirdi. O'quvchilar matn mazmunini tahlil qilish, qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berish va muqobil yechimlar taklif qilish orqali mustaqil fikr yuritishga o'rgandilar.

An'anaviy o'qitish usullariga nisbatan interfaol va muammoli yondashuvlarga asoslangan darslar samaraliroq bo'lib, o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi. Xususan, "Erkin yechim maydoni" kabi metodlar o'quvchilarda erkin fikr bildirish, o'z nuqtai nazarini asoslash va boshqalarning fikriga nisbatan tanqidiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, tadqiqot davomida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasi oshgani, ular dars jarayonida faolroq ishtirok eta boshlagani kuzatildi. Bu holat xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining nafaqat kognitiv, balki affektiv jihatdan ham samarali ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar boshqa ilmiy tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda badiiy va folklor materiallaridan foydalanish yuqori natija berishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari metodik tizimni yanada takomillashtirish, darslarda integratsiyalashgan va interfaol yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarning fikrlash va tushunib o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodika boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

## **XULOSA**

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi namunalari – ertak va maqollardan maqsadli va tizimli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash va tushunib o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu metodika o'quvchilarning matnni anglab o'qish, asosiy g'oyani ajratish, voqealarni tahlil qilish hamda xulosa chiqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan interfaol metodlar, xususan, "Erkin yechim maydoni" yondashuvi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish va o'z fikrini asoslab berish qobiliyatlarini shakllantirdi. Natijada o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning tafakkur faolligi, ijodiy yondashuvi va nutqiy rivoji ham ijobiy o'sishga ega bo'ldi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning ichki motivatsiyasini kuchaytirdi hamda ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa mazkur metodikaning nafaqat kognitiv, balki tarbiyaviy va motivatsion jihatdan ham samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ogʻzaki ijodi namunalari vositasida tashkil etilgan taʼlim jarayoni boshlangʻich taʼlim samaradorligini oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodikani yanada takomillashtirish, uni raqamli pedagogik texnologiyalar bilan uygʻunlashtirish hamda amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Mirziyoyev, Sh. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. – 592 b.
2. Bruner, J. S. In search of pedagogy: the selected works of Jerome Bruner / J. S. Bruner. – New York: Routledge, 2006. – 256 p.
3. Vygotsky, L. S. Mind in society: the development of higher psychological processes / L. S. Vygotsky. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
4. Dewey, J. Experience and education / J. Dewey. – New York: Macmillan, 1938. – 91 p.
5. Quronov, M. Milliy tarbiya nazariyasi / M. Quronov. – T.: Fan, 2018. – 312 p.
6. Musurmonova, O. Maʼnaviy tarbiya asoslari / O. Musurmonova. – Toshkent: 2019. – 184 p..
7. Nishonova, S. Boshlangʻich taʼlim metodikasi / S. Nishonova. – T.: 2020. – 256 p.